


“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirligi huzuridagi Jamoatchilik
Kengashi raisi


X.R.Mamasaidov

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Jamoatchilik
kengashi majlisining
1-sonli bayoni

2025-yil 11-fevral

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi: X.R. Mamasaidov – vazirlik huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi

Qatnashdilar: Jamoatchilik kengashi a’zolari (ro‘yxat bo‘yicha).

KUN TARTIBI:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “Yashil iqtisodiyot” yili” da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son Farmonida belgilangan ustuvor vazifalar to‘g‘risida

(X.Mamasaidov, M.Boboyorov, I.Bakirova, N.Mamaraimova, X.Mamasaidov)

Yig‘ilishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “Yashil iqtisodiyot” yili” da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son Farmonida belgilangan vazifalarning mazmun-mohiyati xususida batafsil to‘xtalib o‘tildi.

Xususan, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida va Oliy Majlis palatalarining majlislarida belgilangan vazifalarning ijrosini og‘ishmay tashkil etish, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risida hadli konvensiyasining Kioto protokoli va Parij bitimi doirasida mamlakatning global hamjamiyat oldida olgan majburiyatlarini bajarishda tarmoq va sohalarning uyg‘un “yashil transformatsiya” sini amalga oshirish, ularning raqobatbardoshligi va resurs tejamkorligini ta‘minlash, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish hamda aholining yashash sifatini yaxshilash va iqtisodiy o‘shishning yangi “yashil rivojlanish” modeliga o‘tish maqsadga muvofiqligi ta’kidlandi.

Shuningdek, “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida mahallalarning ekologik qiyofasini yaxshilash, ko‘chalarda yashillik darajasini oshirish, ekologik jihatdan qulay va farovon yashash muhitini shakllantirish;

aholining salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakllantirish va inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoitlarni yaratish;

tabiiy resurslarni tejash va ulardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta‘minlash;

o'simlik va hayvonot dunyosini asrash, ko'paytirish va keyingi avlodga yetkazish hamda biologik xilma-xillikni saqlash;

“yashil iqtisodiyot” tamoyillarini keng joriy qilish, iqtisodiyotni iqlim o'zgarishiga moslashtirishga qaratilgan loyihalarni barqaror moliyalashtirish;

respublika energobalansida qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish, shu jumladan, davlat-xususiy sheriklik asosida yirik “yashil energiya” stansiyalarini barpo etish, hududlarda kichik va mikro gidroelektr stansiyalari tarmog'ini kengaytirish, aholi xonadonlarida quyosh panellarini o'rnatishni rag'batlantirish;

iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada zamonaviy energotejamkor texnologiyalarni keng qo'llash orqali iqtisodiyotda “uglerod izi”ni kamaytirish;

ekologik barqarorlikka yo'naltirilgan hududlar va tarmoqlararo muvofiqlashtiruvni ta'minlash mamlakat rivojlanishining ustuvor yondashuvlari etib belgilanganligi ta'kidlandi.

Kun tartibidagi masalalarni muhokama qilish natijasi bo'yicha yig'ilish qaror qiladi:

1. Kengash raisi X.Mamasaidovning O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “Yashil iqtisodiyot” yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida” 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son Farmonida belgilangan vazifalarning mazmun-mohiyatiga qaratilgan ma'ruzasi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Jamoatchilik kengashi a'zolari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son Farmonida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi mas'ul etib belgilangan bandlar ijrosini ta'minlash bo'yicha tegishli tavsiya va takliflarini taqdim etilishini hamda o'rnatilgan tartibda ko'mak berib borilishini ta'minlasin.

3. Mazkur yig'ilish qarorining ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

Yig'ilish kotibi



N.Mamaraimova